

MATEMATIKA YO'NALISHI TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Jurayeva Muhayyo Nematillayevna

QarDU, algebra va geometriya kafedrasi katta o'qituvchisi

jurayeva.76@mail.ru,

ORCID:0000-0003-0242-2592.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada matematika yo'nalishi bo'yicha talabalarda mustaqil ta'limgni tashkil etish orqali ularning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, bundan tashqari o'quvchilarning mustaqil fan o'zlashtirishlari natijalarini oshirish, yangicha metodikalar usullaridan foydalanish va uni amalda qo'lllash, ko'plab talabalarni bilim, ko'nikmalarni yakka xolda ham qabul qilishlari kabi maqsadlar ko'zlangan.

Kalit so'zlar: Onlayn video darslik, mustaqil ta'limg, matematika fani metodikasi, ekstrimal vaziyat, ta'limg rejas, o'z-o'zini baholash, o'qituvchilar qo'llab-quvvatlashi, hamkorlik va muhokama, ta'limg strategiyasi, individual o'zlashtirish, ma'lumotlar va manbalar.

Abstract:

In this article, by organizing independent education of students in the field of mathematics, they will effectively spend their free time, in addition, increase the results of students' independent learning of science, use new methodological methods and apply them in practice., many students are expected to receive knowledge and skills individually.

Keywords: Online video tutorial, self-study, mathematics methodology, extreme situation, lesson plan, self-assessment, teacher support, collaboration and discussion, learning strategy, individual o learning, information and resources.

Аннотация:

В данной статье, организуя самостоятельное обучение студентов в области математики, они эффективно проведут свободное время, кроме того, повысят результаты самостоятельного изучения наук студентами, используют новые методические методы и применяют их на практике. Ожидается, что студенты будут получать знания и навыки индивидуально.

Ключевые слова: Онлайн-видеоурок, самообучение, методология математики, экстремальные ситуации, план урока, самооценка, поддержка учителя, сотрудничество и обсуждение, стратегия обучения, индивидуальное обучение, информация и ресурсы.

Kirish

Mustaqil ta'lif - bu talabaning ma'lum bir mavzu bo'yicha mustaqil ishlashi va ma'lum miqdordagi kreditlar bo'yicha kurs ishini bajarishi. Talaba professor yoki o'qituvchi bilan uzoq muddatli loyiha yoki bir nechta loyihalar ustida ishlaydi, talaba esa mustaqil ravishda tadqiqot va topshiriqlarni bajaradi. Mustaqil ta'lif ko'pincha ma'lum bir fan bo'yicha ayniqsa yaxshi bo'lgan talabalarga yoki aksincha, o'qituvchi yoki professordan qo'shimcha e'tibor talab qiladigan talabalarga beriladi. Ba'zi hollarda o'rta maktab va kollej o'quvchilar o'qituvchi yoki ma'murning ko'rsatmasi bo'yicha mustaqil ravishda o'rganishda ishtirok etishlari mumkin. O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'lifning asosiy vazifani bajaradi. Tayyor ma'lumotni o'qituvchidan olgandan ko'ra, mustaqil ta'lif orqali o'zlashtirgan bilimlari yaxshi natijalar beradi. Hozirgi davrda ko'plab vazifalar oldimizda turibdi. O'qituvchilaridan asosan o'quv materiallarini mustaqil ravishda talabalar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning ijodiy va kreativ fikrlashini tarbiyalash talab qilinadi. Bundan tashqaari, hozirgi kunda ta'lif jarayonida elektron ta'lif resursini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'lifda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Elektron ta'lif resursi ta'lif jarayonida sifat-samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ta'lifni tashkil etish jarayonini shakllantiradi. O'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. Lug'aviy jihatdan "elektron ta'lif resursi" bu- o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan va raqamli formada taqdim etiladigan fotografiyalar, statistik va dinamik modellar, virtual borliq va interfaol modellashtirish obektlari va kartografik materiallar, ovoz, belgili obektlar va ishchi grafikasi, matnli xujjatlar va boshqa o'quv materiallaridir.

Matematika yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'lifni tashkil etish uchun bir nechta samarali strategiyalarni qo'llash mumkin:

1. Ma'lumotlar va manbalar: Talabalarga turli xil o'quv materiallari, video darslar va onlayn resurslar taqdim etish. Bu, ularning o'z-o'zini o'rganish imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari bu usul yana boshqa ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Misol uchun uzoqni yaqin qilish. Ya'ni talaba uydan yoki o'ziga qulay bo'lgan joydan turib ham o'ziga kerakli bo'lgan bilimlarni olish huquqiga ega bo'ladi. Qolaversa, ekstrimal vaziyatlarda ham onlayn video darslar orqali ta'lif olish juda muhim holat hisoblanadi. Sababi esa yaqin o'tmishni eslaydigan bo'lsak, karantin paytida barcha talaba-o'quvchilar onlayn tarzda, video darsliklar orqali ta'lif oldi. Bilimga chanqoq istedodli yoshlarimiz uchun o'zlari yakka xolda ham, uydan turib ham kerakli bilim olishlari uchun o'qituvchilar onlayn tarzda darsliklar

tayyorlashdi. Mana shunday vaziyatlarda bu usul juda qo'l keladi. Yokida yana bir misol, agar bilimga chanqoq yosh talaba matematika fanidan chet el o'qituvchilari darslarini, ularning ma'lum bir misolni qay tarzda talabalarga tushuntirishlarini o'z ko'zlari bilan ko'rmoqchi bo'lsa bu uchun aynan chet elda o'qishi shart emas. Uyda turib ham internet tarmog'i orqali onlayn video darsliklar orqali o'zlashtirishi mumkin. Hozirgi texnika, texnologiya rivojlangan bir paytda barcha yoshlarimiz uchun bu usul ta'lim olish uchun anchayin qulay hisoblanadi.

2. Reja tuzish: Talabalarini o'zlariga ta'lim rejasini tayyorlashga jalg qilish. Bu reja o'z maqsadlari va vaqtini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirda bo'lajak o'qituvchilar hamda katta o'qituvchilar izlanishmoqda va yangidan yangi ta'lim usullarini joriy qilishmoqda. Misol uchun o'qituvchi dotsentlar o'qitish usul va metodikalari ustida ish olib borishmoqda. Talabalar uchun matematika fanini o'qitishda aynan qaysi metodikalardan foydalanish ko'proq samara va yaxshi natija berishini ham nazariy, ham amaliy tarzda sinab ko'rishmoqda. Shu usullardan biri esa bu – ta'lim rejasini tayyorlashga jalg qilish. Ya'ni talaba o'zi mustaqil ravishda o'z-o'zida reja tuzib uni taqsimlab oladi.

3. Hamkorlik va muhokama: Talabalar o'rtasida guruhlarni shakllantirib, muammolarni birgalikda muhokama qilish va yechish imkoniyatini yaratish. Bu, mantiqiy fikrlash va jamoaviy ishslash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Talabalarda o'zaro matematik bellashuvlar tashkil etish ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Nafaqat talaba, balki mакtab o'quvchilari ham fan asosida o'zaro bellashuv vaqtida fan bilimlarga yanada ko'proq ega bo'lishadi. Chunki bu jarayon ularni bunga qaysidir ma'noda majbur qiladi va o'qishga talab qiladi. Talabalar bir-birlaridan o'zib ketish uchun ham ancha harakat qilishadi. Matematika misollarini mustaqil ravishda tezroq yechishlari uchun turtki bo'ladi.

4. O'z-o'zini baholash: O'quvchilarga o'z dastlabki bilimlarini baholash va yuqoriga ko'tarish uchun testlar yoki vazifalar berish. Bunda matematika fanidan haftalik, oylik va hatto yillik mavzular yuzasidan turli xil test va mashqlar berish orqali talabalarini bilimlarini yanada mustahkamlash mumkin. Bu ularni yodlab qolishlari va misol-mashqlarni tezroq yechishlari uchun yordam beradi.

5. O'qituvchilar qo'llab-quvvatlashi: O'qituvchilar talabalarga maslahat berib, ularga qiyinchiliklarga duch kelganda yordam berishi muhimdir. Har bir o'quvchi hayotida ta'lim beruvchi insonning o'rni sezilarli darajada katta bo'ladi. Chunki dastlabki va kerakli bilimlarni o'zidan ko'ra bilimliroq, tajribaliroq o'qituvchidan to'g'ri olishi ularning hozirgi va keyingi ish faoliyatlarida, hayotlarida juda katta yordam beradi desak adashmagan bo'lamic.

Ushbu strategiyalar mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik.-T.: "Aloqachi", 2008, 304 b.
2. Лариса Леонидовна СОРОКИНА "ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ РЕАЛИЗАЦИИ КРЕАТИВНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА", Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки, 2017. Т. 22, вып. 5 (169)

